



“MAKTAB — HAYOT POYDEVORI: 42-MAKTAB TARIXI VA BUGUNI”

Almatov Dilbek Shokir o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogik va ijtimoiy fanlar
fakulteti Tarix ta'lim yo'nalishi 3-bosqich 23-01- guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20685420>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-iyun 2026 yil
Ma'qullandi: 5-iyun 2026 yil
Nashr qilindi: 13-iyun 2026 yil

KEY WORDS

*Maktab, ta'lim, tarbiya,
tarix, ilm, o'qituvchi, o'quvchi,
kelajak, jamiyat.*

ABSTRACT

Mazkur maqolada maktabning inson hayotidagi o'rni, ta'limning ahamiyati va uning shaxs shakllanishidagi roli haqida fikr yuritiladi hamda Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanida joylashgan 42-maktab tarixi va uning rivojlanish bosqichlarini tahlil qiladi. Shuningdek, mazkur ta'lim dargohining yetakchi o'qituvchilari va yetishtirgan iqtidorli shaxslari haqida ham ma'lumot beriladi. Maqola maktab ta'limining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, sifatli ta'limning zarurligi va uning kelajak avlod uchun ahamiyati mavzusiga bag'ishlangan.

Hayot yo'lida birinchi masala - Maktab masalasidir.

Abdurauf Fitrat.

Maktab-inson hayotida o'ziga xos o'rin egallovchi, uning bilimli, tarbiyali kamol topishida poydevor bo'lib xizmat qiluvchi ziyo maskani. Bu yerga ta'lim-tarbiya olish uchun qadam qo'ygan har bir kishi, eng avvalo, o'zligini anglay boshlaydi, asta-sekin fanlarning qiziq, sehrliligi olamiga qadam qo'yib, bilimlarni o'zlashtirish orqali butun borliqni tushuna boradi. Shu jarayonlar natijasi o'laroq o'z kelajagini belgilaydi. Yaxshi va sifatli ta'lim, ayniqsa, bugungi kunda zaruriy ehtiyojga aylanib bormoqda. Bilimlar poydevorini esa maktab davridayoq mustahkam qurish lozim. Oddiy misol: jamiyatda qaysidir mavqega ega yoki ilm-fan, madaniyat va boshqa sohalarda ma'lum darajaga erishgan inson borki, uning zamirida maktab ta'limining o'rni beqiyos ahamiyatga ega bo'lganini takror va takror ta'kidlaydi.

Yaqin tarixga bir nazar tashlab ko'raylik. Prezidentimiz Shavkat Miramonovich Mirziyoev davlat rahbari sifatida faoliyat boshlagan kezlari amalga oshirgan dastlabki xayrli ishlaridan biri umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qish muddatini 11 yil etib belgilagani bo'ldi. Prezidentimiz - farzandlarimiz ta'limi va tarbiyasida juda katta e'tibor, kerak bo'lsa, nazorat talab qilinadigan vaqtda kasb-hunar kollejlariga yuborishni lozim topdi. Natijada nima bo'lgani barchamizga ayon. Biz ularga yaxshi bilim berishni ham, hunar o'rgatishni ham uddalay olmadik. Eng achinarlisi, tarbiyasi bilan ham jiddiy shug'ullana olmay, milliy qadriyatlarimizga yot bo'lgan "Ommaviy madaniyat" ta'siriga tushishiga sharoit yaratib berdik deya ta'kidladilar.

Shuning uchun ham davlatimiz rahbarining maktab ta'limini 11 yillik etib belgilash bilan bog'liq dastlabki islohoti ota-onalar tomonidan eng to'g'ri va o'z vaqtida qabul qilingan qaror sifatida e'tirof etildi. Har bir insonning hayotida bilim olish, dunyoqarashni kengaytirish va kelajak sari yo'l ochishda ta'lim maskanlari beqiyos rol o'ynaydi. Ayniqsa, bolalik va o'smirlik

yillarida olingan bilim inson hayotining eng muhim poydevorini yaratadi. Shu o'rinda ko'plab o'quvchilarga ta'lim tarbiya berib buyuk insonlarni yetishtirib chiqarayotgan va o'zim o'qigan 42-maktab tarixi va hozirgi kuni haqida ma'lumot bermoqchiman. Unga ko'ra maktab Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tuman Oqtosh MFYga qarashli Terskay qishlog'ida joylashgan bo'lib, 1938-yil 1-sentyabr Hozirgi 42-umumiy o'rta ta'lim maktabi (sobiq YA.M.Sverdlov nomli maktab) o'rnida 1937 yil Bolshevik kolxozi tomonidan qurilgan 6 xonali binoda daslabki sinflar uchun maktab o'z ish faoliyatini boshlaydi.

1938-1940-yillarda maktabga mahalliy xalq orasidan birinchi bo'lib Hayitali Azizov domla direktorlik lavozimiga saylangan. Sinflar komplektlashtirilgan holda tashkillashtirilgan shuning uchun ham sinflar soni va o'quvchilar haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Chunki bu maktablar SSSR hukumati tomonidan aholi orasida savodsizlikni tugatish maqsadida qurilgan ilk maktablardan biri hisoblanadi. 1940-1941-yillarda maktabga Jizzaxlik Barotov direktor, ilmiy mudir bo'lib Toshkentlik Afandiev degan shaxslar rahbarlik qilganlar. Ushbu yillarda maktab pedagogik jamoasi quyidagicha bo'lgan: Safar Keldiyev, Hayitali Azizov, Hakim Nazarov, Umar Jurayev, Arslanov, Bolta Ro'ziyev, Alimqul G'o'chchiyev, Yuldashov, Karim Musirov, Menglimamat Bo'tayev va Imomqul G'o'chchiyevlar bo'lgan. 1939-1940 o'quv yilida 7-sinfni bitirgan birinchi bitiruvchilar taxminan 19 nafarni tashkil etgan. 1940-1941- o'quv yilida 7-sinfni bitirgan ikkinchi bitiruvchilar taxminan 22 nafarni tashkil etgan. 1941 yil Ulug' Vatan urushi boshlanganligi sababli 2-3 yil maktabda bitiruvchilar bo'lmagan. 1941-1942 yillarda maktabimizga YA.M.Sverdlov nomi berilgan. Maktabga Sarg'oloq, Xo'jaqishloq, Oqrobot, Shomolikon qishloqlaridagi bolalar ham o'qishga tortilgan. 1961-1962 o'quv yilida maktab 7 yillikdan 8 yillikga aylantirilgan. 1962-1963 o'quv yilida maktabning 17 nafar o'quvchisi 8-sinfni tamomladi. 1962-yilda maktabning binosi tamirlanib, bino tomi shiferlandi.

1962-1972 yillarda mahalliy kadrlardan oliy ma'lumotli matematik Ibrohim Mengliyev maktabga direktorlik qilgan. Maktab kapital tamirlanib ustki qismi shiferlangan. Qo'shimcha klub ishga tushirilgan. 1965-yili o'quvchilar soni oshib borganligi sababli yana qo'shimcha ikki xona qo'shib ishga tushirilgan. Bunda usta Normat Qurbonov boshchiligidagi qurilish brigadasi ishtirok etgan. Maktabning yangi binosi 1968-1972 yillari qurilib ishga tushirilgan. Maktab o'rta umumta'lim maktabiga aylantirilgan. Yangi maktab binosi Qarshi qorako'lchilik tresti orqali, Toshkentlik deputat Komol Aliyevich Aliyevning bevosita yordami bilan qurildi. 1972-1973 o'quv yilida birinchi o'rta ma'lumotga ega bo'lgan o'quvchilar soni 44 nafarni tashkil etgan. 1974-1976 yillarda maktabga Ermat Qurbonov direktorlik qilgan. Uning direktorlik qilgan davrida yangi maktab binosining orqa tomonidan 6 xonali bino va sport zali qurilgan. 1987-yilda birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov (Qashqadaryo viloyati hokimligida ishlagan paytida) maktabimizga tashrif buyurib toza ichimlik suvi yo'qligini ko'rib, uning yordamida toza ichimlik suvi turadigan hovuz qurilgan va suv quviri tortilib ishga tushirilgan. 1989-yildan 2013-yilgacha maktab direktorligini Normurodov Xoliqul Ergashovich boshqardi. 1992-yil 20-avgustdan boshlab maktabning YA.M.Sverdlov nomi o'zgartirilib mehnat faxriysi Hayitmamat Jumayev nomi berildi. 2013-yil hozirgi maktab binosi kapital rekanstruksiya asosida 2 qavatli qilib qurildi. 2017-yilda maktabga gimnastik sport zali bolalar va o'smirlar sport jamg'armasi hisobidan qurib berildi.

Hozirgi kunda maktab pedagog jamoasi 26 kishidan iborat: Maktab direktori Maxmudov Abdiraim Alimkulovich, O'TIBDO' - Eshqulov Akbar Ismoilovich, MMIBDO' - Toshmatov Ibragim Berdiyevich, pedagoglar: Butayev Yunus Xasanovich, Yuliyev Abdurahim Ismailovich, Jumayev Fazliddin Jurakulovich, Xonimqulov Husniddin, To'xtamurod Nomozov, Marxamat Maxmudova, Norqobilov Sobir, Eshqulova Maftuna, Eshmatov G'iyos, Ibragimov Hasan, Xolmurodova Baxtiniso, Normurodova Hamida, Maxmudov Erkin, G'ulomov Yusup, Jo'lliyev Baxrom, Raximov Lutfilla, Maxmudov Umirzoq, Qarshiboyeva Nilufar, O'ngboyeva Sadoqat, Bozorov Boykobil, Nazarov Dilshod, Nomozov Asqar, Yangiboyeva Gulruxsor, G'uchchiyeva Maxliyo kabi o'qituvchilar dars mashg'ulotlarini olib bormoqdalar. Hozirda

maktabimizda 237 nafar o'quvchi tahsil olmoqda. Shu zaylda maktabimiz malakali, jonkuyar ustozlarning mehnati samarasi o'laroq har yili Yangi O'zbekiston uchun iqtidorli o'quvchilarni yetishtirib bermoqda.

2022-yilda 11-sinfni bitirgan jami 15 nafar o'quvchidan 12 nafari Oliy ta'lim muassasalarining talabalari bo'ldilar.

Maktabimizni bitirgan ko'plab iqtidorli o'quvchilardan Almatov Quvondiq Asqaraliyevich 2020-2022-yillarda Samarqand transport va muhandislik texnikumi Telekommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha ta'lim oldi. 2022-yilda O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalari universitetiga o'qishga kirib va hozirda ushbu dargohning 4-kurs talabasi sifatida tahsil olib kelmoqda. 2018-yilda uning "Vatan mehri" nomli ilk she'riy to'plami, 2025-yilda esa "Ishq va judolik" nomli she'riy to'plamlari chop etildi.

Almatov Sherbek Shokir o'g'li o'rta maktabni oltin medal bilan tamomlab 2020/2024-yillarda Toshkent davlat transport universitetida Avtomobil yo'llarini loyihalash yo'nalishini grand asosida, to'rt yillik bakalavriat bosqichini o'qib tamomladi. 2024-yildan "Perfect Consulting Group" kompaniyasida, Konsalting departamenti ta'minot bo'limi rahbari bo'lib ishlaymoqda.

Salimov Zuxriddin Noraliyevich o'rta maktabni a'lo baholarga tugatib Chirchiq Davlat Pedagogika universitetining Matematika va Informatika fakultetiga davlat granti asosida o'qishga qabul qilindi. Hozirgi kunda Toshkent shahri 251- makrabda pedagogik kadr sifatida faoliyat yuritmoqda.

Bundan tashqari ushbu maktabni imtiyozli tugatib Respublikamizning turli oliygohlarida tahsil olgan Jumayev Qahramon Jo'raqulovich, Musirov Maxmarejab Uralovich, Nurmatov Doston Uralovich, Saidov Sarvar Abdijalilovichlar doktorlik dissertasiyasi yoqlab turli lavozimlarda faoliyat yuritib kelmoqdalar.

2026-yil aprel oyida Maktab va maktabgacha ta'limi vaziri E'zozaxon Karimovanning maktabimizga tashrifi o'qituvchilar va o'vchilarni juda quvontirdi. O'quvchilarning kelajakdagi rejalarida bu tashrif va maktabga berilgan e'tibor muhim rol o'ynadi. Tashrifdan maqsad maktabimizga qo'shimcha 120 o'rinli o'quv binosi qurib berish rejasi hamma uchun quvonarli holat b'ldi.

Xulosa qilib aytganda, maktab shaxsning har tomonlama shakllanishida muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Maktab faoliyati misolida ta'lim sifati, pedagogik yondashuv va tarixiy rivojlanish o'zaro uzviy bog'liqligi namoyon bo'ladi. Mazkur ta'lim maskani iqtidorli va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash orqali jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Foydalanuvchi adabiyotlar:

1. Maktab yilnomasi.
2. Dala Tadqiqoti.
3. Ustozlarining og'zaki rivoyatlari asosida.